

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAC NYUTON
(1643-1727)



2022

APREL

№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
3-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-3**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-3**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 20 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

1. Namozova Nasiba	
TARIX FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR.....	7
2. Tilovova Shalola Djurayevna	
TARIX FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH	9
3. Якубова Шахло	
ШЕРМУҲАММАД МУНИС ХОРАЗМИЙ	11
4. Kamolova Nargiza Ibragimovna, Ademova Nargiza Yangiboyevna	
ISHQORIY YER METALLARI MAVZUSINI O'QITISHDA "KEYS-STADY" TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	14
5. Zohidova Nazira Olimjonovna	
USMON YUSUPOV MILLIY QAHRAMON – ABADIYATGA DAXLDOR SHAXS HAQIDA.....	16
6. Xidirova Shahlo Kamilevna	
TARIX DARSLARIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA MUHAMMAD SHAYBONIYXON MUNOSABATLARI MAVZUSINI O'RGANISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR.....	18



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

TARIX FANLARINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Namozova Nasiba

Toshkent viloyati Oqqo'rg'on tumani
11-IDUM tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Tarix fani ta'limning barcha bosqichlarida o'z o'rniga ega bo'lgan mustaqil ijtimoiy fan sifatida barkamol avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy va xorijiy adabiyotlarni tahlil etish orqali tarixiy ta'limni qanday qilib yanada samarali tashkil qilish mumkinligini muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: interact, Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja

Interfaol o'qitish uslublari qo'llangan vaqtda bilim berish o'qituvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'qituvchi hamkorligiga asoslangan bo'ladi. Hozirgi kunda ko'pgina metodik innovatsiyalar interfaol usullarni qo'llash bilan bog'liq. Interfaol so'zi o'zi nimani anglatadi? Bu suz bizga **“interact”** ingliz so'zidan kelgan bulib inter – o'zaro, ikki taraflama; act – ish (harakat) kilmok degan ma'nolarni beradi.

Interfaol – kim (inson) yoki nima (kompyuter) bilandir o'zaro harakat qilish, yoki muloqotda bo'la olishni anglatadi. Bundan kelib chiqib, interfaol ta'lim berish – bu avvalambor o'quvchi va o'qituvchi bilan o'zaro aloqa (harakat) vujudga keladigan muloqotli dars berish jarayonidir. Interaktivni asosiy xususiyatlari nimada? Interaktiv ta'lim berish bu bilim olish jarayonini tashkil qilishni o'ziga xos bo'lgan shaklidir. U aniq va erisha oladigan maqsadlarni o'z oldiga qo'yadi. Bu maqsadlardan biri bu o'qitish uchun qulay sharoitlarni yaratish. Bunda o'quvchi o'zini muvaffakiyatini, intellektual qodirligini tushunsin. Bu ukuv jarayoni samaradorligiga olib keladi. Interfaol ta'limni mohiyati shundaki, darsda barcha o'quvchilar bilim olish jarayoniga jalb kilinadilar, ularda bilgan narsalari buyicha tushunish va harakat qilish imkoniyati buladi. O'quvchilarning bilim olish jarayonida birgalikdagi faoliyati, ukuv materialini uzlashtirishi, xar bir ishtirokchi o'zini aloxida xissasini kushishini, bilim va ma'lumotlar, goyalar almashuvi ruy berayotganini anglatadi. Bularning barchasi hayrixoxlik va o'zaro yordam muhitida amalga oshadi.

Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalari darajalari.

“Pedagogik texnologiya” tushunchasi ta'lim amaliyotida uchta tartib bilan bir-biriga bog'liq darajalarda ishlatiladi.

Umumpedagogik (umumdidaktik) daraja: umumpedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) texnologiya ta'limning ma'lum bosqichida ushbu region, o'quv yurtida yaxlit ta'lim jarayonini ifoda etadi. Bu yerda pedagogik texnologiya pedagogik tizimga o'xshashdir: unga o'qitishning maqsadlari, mazmuni, vosita va metodlari to'plami, faoliyat ob'ekti va sub'ekti algoritmi kiradi

Tarix fanining metodik darajasi: Tarix fanining metodik darajasi “tarix faninng metodik” ko'rinishida qo'llaniladi, ya'ni tarix fani bo'yicha, tarix o'qituvchisi doirasida o'qitish va tarbiyalash ma'lum mazmunini amalga oshirish uchun metodlar va vositalar to'plami sifatida ishlatiladi.

Lokal (modulli) darajasi: lokal texnologiya o'quv-tarbiyaviy jarayonning alohida qismlari, xususi didaktik va tarbiyaviy masalalarni hal etish texnologiyasidan iborat (alohida turdagi faoliyat, tushunchalar shakllantirish, alohida shaxsiy sifatlarni tarbiyalash, dars texnologiyasi, materiallarni takrorlash va tekshirish texnologiyasi, mustaqil ishlar texnologiyasi va boshqalar).

Tarix o'qitishning innovatsion texnologiyalarini rasmiylashtirish usullari.

Texnologik chizma – bu tarix o'qitishning texnologik jarayonini shartli ravishda tasvirlash, ularni alohida qismlarga ajratish va ular orasidagi mantiqiy bog'liqliklarni ko'rsatish.

Tarix o'qitishning texnologik xaritasi – bu tarix fanini o'qitishda qadamma-qadam, bosqichma-bosqich harakatlar ketma-ketligi ko'rinishida (ko'pincha grafik shaklda) qo'llaniladigan vositalarni



ko'rsatib jarayonni tasvirlash.

Texnologiyalar va metodikalarning aralashtirib yuborilishi ba'zan metodika texnologiya tarkibiga kirishiga, ba'zan esa aksincha, u yoki bu texnologiyalar - o'qitish metodikasi tarkibiga kirishiga olib keladi.

Materializm. Ta'lim ma'lumotlari milliy zahiralarda – O'zbekistonning - o'quv metodik adabiyotlarda eng avval dialektik-materializm falsafiy yo'nalishlar aks ettirilgan: maktab ta'lim muammolarini boshqacha tushunish sobiq sovet davrida bema'ni hisoblangan. An'anaviy ta'lim tizimi aynan ana shu falsafaga asoslangan. Shu bilan birga jahon pedagogika fani va amaliyotida har tomonlama rivojlanish (ma'naviy, g'oyaviy, intellektual, estetik, jismoniy) masalasini samarali hal etuvchi Dunyoqarash muammolariga bir qator muqobil yondashuvlar mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, tarix fanida zaonaviy metodlar o'quvchilarni mazkur fanni yaxshi o'zlashtirishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. TARIX FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR (O'quv-uslubiy qo'llanma) F.Sh.Aqchayev JIZZAX - 2014 y
2. “Tarix o'qitish metodikasi” katta o'qituvchi S.I. Hamroyeva
3. <https://charactereducation.uz/post?id=9>



TARIX FANINI O‘QITISHDA O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Tilovova Shalola Djurayevna

Navoiy viloyati Navoiy shahar
17-maktab tarix fani o‘qituvchisi
Telefon: 998 913392820

Annotatsiya: Maqolada yosh avlodni barkamol inson etib voyaga yetkazishda ularda milliy va tarixiy ong, dunyoqarashni shakllantirish omillari, tarixni o‘qitishda darslikdan tashqari manbalardan foydalanish haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Ajdodlar, qadiyatlar, muzey eksponatlari, sayohat, Munis, Ogahiy, Xorazm, Abu Bakr Narshaxiy, Buxoro, Xorazmiy, Beruniy, Temuriylar.

Mamlakatimizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘nan sog‘lom, yuksak bilimli, jismonan baquvvat etib tarbiyalash davlat siyosatining bugungi kundagi eng ustuvor masalalaridan biriga aylangan. Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, iqtisodiyat, umuman olganda, barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qaror va qonunlar yosh avlodni barkamol inson etib voyaga yetkazishga qaratilgan.

Barkamol shaxs tarbiyasida maktab ta‘limining ahamiyati katta. Yoshlar ma‘naviy tarbiyasida milliy va tarixiy ong, dunyoqarash muhim o‘rin tutadi. Maktabda tarix fanini o‘qitish o‘quvchilar ongida o‘tmish haqidagi tasavvurni vujudga keltiradi. Dars jarayoni va amaliy mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘z o‘tmishini biladi, asrlar davomida ajdodlari yaratgan qadiyatlarni o‘rganadi, shu bilan birga o‘quvchida ajdodlarga mos avlod bo‘lish, vatanparvarlik tuyg‘usi shakllanadi. O‘quvchilar tarixiy ongi rivojlanishida o‘quvchilar bilish faoliyatini faollashtirish muhim rol o‘ynaydi.

O‘quvchilarning bilish faoliyati darslarning mazmuni, uning g‘oyaviy-siyosiy va ilmiy-nazariy jihatdan yuqori saviyada bo‘lishi, o‘qituvchining ta‘sirli va hayotiy misollar yordamida o‘rganilayotgan tarixiy faktlar, voqea-hodisalarning mohiyatini jonli va ishonarli tarzda ochib bera olishi hamda o‘quvchilarda uni o‘rganishda ishtiyoq uyg‘ota olishiga bog‘liqdir. Bundan tashqari texnik vositalar, tarixiy kinofilm va asarlar, rasm, ko‘rgazmali qurollar, teatr sahna ko‘rinishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini tarixiy bilim manbalari bilan ta‘minlash kerak. O‘quvchilarga tarixiy bilim manbalarining asosiy poydevori va muhim tomonlarini ilmiy asosda shakllantirishda, avvalo, o‘qituvchining o‘zi ana shunday bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan egallashi, shuningdek, ana shu bilimlarni o‘quvchilar ongiga yetkaza olish qobiliyat egasi va zamonaviy pedagogik uslublar bilan qurollangan bo‘lmog‘i kerak.

O‘quvchilarda tarixiy bilimlarga bo‘lgan qiziqishlarni faol uyg‘otib borish, dars jarayonida ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish uchun o‘rganilayotgan mavzuga turli vositalar yordamida yondashishni, darslik matndan tashqari mavzuga oid manbalarni tanlash, boshqa fanlararo aloqa bog‘lash, badiiy adabiyot va davriy matbuot materiallaridan foydalanish zarur. Jumladan, o‘tiladigan mavzuga mos ravishda muzey eksponatlaridan va sayohat natijalaridan foydalanish mumkin. Vatanimiz o‘tmishi haqida yaratilgan tarixiy-badiiy asarlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan, Munis va uning jiyani Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs-ul iqbol” asarida Xiva xoni Eltuzarxon davridan 1806-1839-yillardagi Xorazm tarixi bitilgan, Ogahiyning Olloqulixonga bag‘ishlab yozgan “Riyozi ud-davla”, Muhammad Rahimxonga bag‘ishlangan “Shohidi iqbol” asarlari ham Xiva xonligi davri haqida yozilgan. Ogahiyning “Shohidi iqbol” asarida faqat Xorazm tarixi emas, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonlarining Rossiya bilan olib borgan urushlari, bitimlari va uning oqibatlari mukammal ravishda yoritilgan. Bu manbalar o‘lkamiz tarixi haqida o‘quvchilarga mukammalroq tushunchalar berishga yordam beradi.

Xalqimiz o‘tmishi va qadriyatlarini o‘zida mujassam bunday asarlar juda ko‘p. Jumladan, Abu Bakr Narshaxiyning Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk qadimiy durdonalaridan biri bo‘lgan “Tarixi Buxoro” nodir asari, O‘rta Osiyo tarixi aks etgan IX-XV asrlarda yozilgan asarlar: Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum”, Abu Rayhon Beruniyning “Osor al-boqiya”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘at at-turk”; Temuriylar saltanati tarixiga oid asarlar:



Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla as-sa’dayn”, Mirxondning “Ravzat as-safo”; O’rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid asarlar: Muhammad Solihning “Shayboniynoma”, Zahiriddin Boburning “Boburnoma”, Abulg’ozi Bahodurxonning “Shajarayi tarokima” kabilar Vatanimiz o’tmishi haqida o’quchilar tasavvur olamini kengaytirishda qimmatli manba bo’lib xizmat qiladi.

Yurtimiz tarixini o’rganishda moddiy ashyolar, hunarmandchilik, kiyim-kechak, me’moriy obidalar, nafis tasviriy san’at namunalari- miniatyura rasmlar qimmatli manba rolini o’taydi. Minatyura rasmlar, tarixiy ashyolar tasvirida Vatanimiz o’tmishda betakror va go’zal obidalari, tabiati juda chiroylin aks ettiriladi. Masalan, buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning “Samarqanddagi

Bibixonim masjidining qurilishi” nomli mashhur rasmini olaylik. Bu rasmdan bolalar XV asrdagi qurilish jarayoni, unda ishtirok etayotgan ustalar to’g’risida mukammal tasavvurga ega bo’ladi. Bunday rasmlardan tarixni o’rganishda tasviriy vosita sifatida unumli foydalanish mumkin.

O’quvchi-yoshlar ongiga vatanimiz tarixini singdirish, ajdodlar erishgan ilmiy va amaliy yutuqlarini o’rgatish orqali muqaddas tuprog’imizni asrab-avaylash, vatanparvarlikni shakllantirish, milliy g’urur va iftixor tuyg’ularini yaratish g’oyat muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o’rta va O’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida”gi 187-son qarori.
2. Tarix fani o’quv dasturi.(5-9-sinf) 2017-yil.
3. B. A. Axmedov. O’zbekiston tarixi manbalari. - Toshkent: “O’qituvchi”. 2001.
4. S. Saidqulov. O’rta Osië xalqlari tarixining tarxnavisligidan lavhalar. - Toshkent: “O’qituvchi”. 1993.
5. [www. Ziynet.uz](http://www.Ziynet.uz)



ШЕРМУҲАММАД МУНИС ХОРАЗМИЙ

Якубова Шахло.

«Ичан-Қалъа» Давлат музей-қўриқхонаси
Хоразм хонлари тарихи илмий ходими
b.madyor@bk.ru

Аннотация: Мақолада муаллиф умрини илмга бағишлаган XIX аср бошларида Хива хонлиги тарихида ўчмас из қолдирган буюк инсонлардан бири – Шермуҳаммад ибн Авазбий мироб ўғли Мунис ҳаёти ва ижоди, унинг илмий-маданий меросини ёритилишини ўз фикр мулоҳазалари билан баён қилган.

Калит сўзлар: Қиёт қишлоғида, Мунис, “Саводи таълим” Хива хони Элтузархон, “Фирдавс-ул иқбол”.

Қадимги Хоразм илм – маърифат ва маданият марказларидан бири сифатида дунёга машҳур бўлганлиги тарихдан маълум. Бу муқаддас диёрда яшаб ўтган Ал – Хоразмий, Абу Райҳон Беруний, Маҳмуд Замахшарий, Паҳловон Маҳмуд, Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли Огаҳий, Муҳаммад Раҳимхон Феруз, Аҳмаджон Табибий, Муҳаммад Юсуфбек Баёний, Аваз Ўтар каби буюк аллома, шоирлар жаҳон фани хазинасини бебаҳо дурдоналар билан бойитганлар.

XIX аср бошларида Хива хонлиги тарихида ўчмас из қолдирган буюк инсонлардан бири – Шермуҳаммад ибн Авазбий мироб ўғли Мунис эди. 1778 йилда Хива шаҳри яқинидаги Қиёт қишлоғида мироб оиласида таваллуд топган адиб: “Мен, Мунис, Хивада яшовчи юз тоифасидан бўлган Амир Эшимбийнинг авлодидандирман”, деб ёзганди.

Унинг болалик ва ёшлик йиллари Қиёт қишлоғида ўтди ва улғайгач, Хивадаги мадрасалардан бирида таҳсил кўрди ва устози Саййид Эшонхўжадан сабоқ олди. Араб, форс, туркий халқлар адабиёти, шунингдек классик музика ҳамда тарих фанини кунт билан ўрганди. У моҳир хаттот бўлиб куфий, райҳоний, хатти шикаста каби хатларни яхши билган. Унинг отаси Авазбий 1800 йилда вафот этгач, хон 22 яшар Шермуҳаммадни саройга таклиф қилади, уни қазув, қачув, (сув хўжалиги) ишлари бўйича котиб, 1812 йилда амакиси Эрнийезбек мироб ўлиб, хон Мунисни мамлакатни бош мироби қилиб тайинлайди. Шеърят оламида унинг таҳаллуси Мунис бўлиб, луғавий маъноси “улфат”, “ҳамдам”, “дўст” демакдир. Низомийдан тортиб, то ўзи яшаган даврга қадар ўтган сўз санъаткорларининг ижоди билан ошно бўлган шоир, ўзининг “Манга” радифли ғазалида Низомий, Хисрав Дехлавий ижодидан нақадар лаззатланганлигини, Ҳофиз Шерозий, Лутфий асарлари орқали шеърят бўстонида қадам кўйганини, Фирдавсийнинг ижод боғида ором олганини, Анварийдан нур эмиб, Саъдий ва Жомийдан чексиз баҳраманд бўлганини, Бедилнинг ажойиб сўзларидан файз топиб, ниҳоят буюк Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулийни ўзига ҳомий билганини зўр мамнуният билан қайд қилади.

Қилса ҳосид даҳли бежо сўз аро йўқтур ғамим,

Ким бу маънида Навоий руҳи ҳомийдур манга.

Шоир Навоийни ҳомийгина эмас, балки ўзига устод (пир) деб англади:

Сўз ичра Навоий жаҳонгирдурур,

Мунисга маъони йўлида пирдурур.

Мунис тез орада эл-юрт ҳамда Хива ҳукмдори Аваз иноқ назарига тушади. 1804 йилда шоир алифбо сифатида фойдаланиш учун “Саводи таълим” китобини ёзиб тугатади. Яна шу йили ижоди намуналарини “Мунис ул-ушшоқ” (“Ошиқлар дўсти”, 1804 йилда) деган ном билан тўплаб, уни 1813 йилда 16 892 мисрадан иборат катта девонга айлантиради. Ушбу асарда шоирнинг ғазаллари, мухаммаслари, рубойлари, мустазодлари, туюқлари, тўртлик ва маҳсуз иккилик байтлари мавжуд бўлиб, булардан ташқари девон охирига шоирнинг 1804 йилда назм билан ёзиб тамомланган каллиграфияга оид “Саводи таълим” номли асари ҳам илова қилинган. Ушбу кичик рисолада чиройли хат ёзиш усуллари баён қилинган. Рисола икки қисмдан иборат. Асарнинг биринчи қисмида хат машқ қилишга тайёргарлик ва бу иш учун керакли асбоблар тўғрисида сўз юритилади. Иккинчи қисмида эса, хат машқи ва унинг усули ҳақида амалий йўл билан таълим берилади. Шоир ўзининг ушбу рисоласи бошида кишилиқ жамиятида ёзувнинг катта аҳамиятга эга эканини қайд қилиб, шундай баён қилади:



Сўз маҳзанининг нишонаси ҳам,
Маъни дурунинг хазонаси ҳам,
Ҳар сўзки, кўнгулдин ўлди мавжуд,
Хат бўлмаса бўлғай эрди нобуд.

Ўттиз йилдан ортиқ ижод қилган адибнинг ота-боболаридан мерос бўлиб келаётган сулолавий касб мироблик ҳақида “Орналар” номли рисоласи биз учун ниҳоятда қимматлидир. Ушбу китоб туфайли биз воҳада сувчилик касби, деҳқончилик тарихи, сув учун бўлган урушлар тарихи билан боғлиқ ижтимоий сиёсий воқеалардан хабардор бўламиз.

Хива хони Элтузархон (1804-1806) Мунисга Хоразм тарихини битишни топширди. Мунис бу асарга “Фирдавс-ул иқбол” (“Бахт боғи” ёки “Бахт-саодат боғи”) деб ном қўйди. Асар Мунис ва жияни Огаҳий қаламига мансуб бўлиб, у афсонавий ривоятдан бошланиб, 1825 йилгача Хоразмда содир бўлган тарихий воқеаларни ўз ичига олади. Мунис бу асарни ёзиб тугата олмаган, у қадим замонлардан бошлаб Муҳаммад Раҳимхон (1806-1825) ҳукмронлигининг 7-йили, яъни 1813 йилгача бўлган воқеаларни ёзиб улгирган, 1813 йилдан 1825 йилгача бўлган воқеалар Огаҳий қаламига мансуб бўлиб ҳижрий 1255 (милодий 1839) йили ёзиб тугалланган.

Асар Хива хонлиги ҳудудида яшовчи ўзбеклар, туркманлар, қозоқ ва қорақалпоқ халқлари тарихини акс эттиради. Асарни мукаммал нусхаси Мунис ва Огаҳий қўлёзмасига мансуб бўлиб 613 бет, асар Самарқанд қоғозига, қора сиёҳ билан насталиқ хатида ёзилган.

“Фирдавс ул иқбол”нинг мазкур нусхаси Россия Фанлар Академиясининг, Санкт-Петербург бўлимида КП-938 рақами билан сақланмоқда, уни рус шарқшуноси А.Кун 1874 йилда топширган. Асар кейинчалик, 1856 йилда мулла Нурниёз ибн мулла Муҳаммадниёз томонидан кўчирилган. Асарга 1879 йилда Муҳаммад Ризо охунд ибн Муҳаммад Карим девон тартиб берган.

Мунис бу асарини Элтузархон даврида бошлаган, 1806 йилда у ўз асарини Шерғозихон даврига етказганда, Бухоро хони амир Ҳайдар билан бўлган урушда Элтузархон ўлади, ундан кейин у Муҳаммад Раҳим I даврида бу асарни давом қилдиради. У бу даврнинг 7 йиллик тарихини ёзиб тугатганидан кейин, бу ишни тўхтатиб, 1819 йилда у машҳур тарихчи Мирхонднинг “Равзат-ус-сафо” (“Сафо боғи”) асарини ўзбек тилига таржима қилишга киришади. Бу асарни ҳам биринчи бўлимини таржима қилиб, иккинчи бўлими устида ишлай бошлайди, лекин 1829 йилги Оллоқулихоннинг ҳарбий юриши вақтида вабо касаллигига чалиниб, Аҳал-Така воҳасида дунёдан ўтган. Жасади Хивага келтирилиб, Эски Қиёт қишлоғидаги Мавлонбобо қабристонида махсус барпо этилган мақбарага дафн қилинган.

Ўз даврида Мунис туркман шоири Зелилий (1800-1853) (Олоқулихон даврида зиндонга ташланган) ва қозоқларнинг Кичик жузи оқини (бахши шоири) Маҳамбет (1800-1846) (Оллоқулихон томонидан саройда қабул қилинган, лекин қарашлари тўғри келмагани учун Хива хонлигидан чиқиб кетган) билан ҳам фикр бўлган, уларнинг юраги қўридан отилиб чиқаётган ҳар бир нидо ёки ишқий шеърларида ватанга ва ўз халқига муҳаббат ҳисси, ўзи яшаган замонага нисбатан норозилик фикрлари олға сурилади: – ҳақсизлик, зулмга қарши норозилик, адолат, халққа муҳаббат, сахийлик, вафо, маърифатпарварлик, илм-фанга ҳомийлик, жаҳолатга қарши кураш, инсоний фазилатлар улуғланган.

Уч халқнинг азиз шоирлари қадим Хива шаҳрида 1827 йилда шеърят оқшомида учрашганларида “Янглиғ” радифли ғазаллари билан ўзларининг ички ҳиссиётларини қағозга туширганлар.

Дилда ишқ борки, зиё сочурман мен шам янглиғ,
Порлабон зулматга йўл очурман мен шам янглиғ...

Мунис.

Ёш сели ва ўт аро қолди бу хаста юрак,
Фуркатингда охири ўчурман мен шам янглиғ...

Зелилий.

Кундуз тундан сиёхроқ бўлур чехранг кўрмасам,
Қора ғамлар бағрига кўчурман мен шам янглиғ...

Маҳамбет.

Муниснинг шеърлар тўплами (девони) ўзи ҳаёт чоғида ва ўзидан кейин ҳам хивалик хаттотлар томонидан бир неча бор кўчирилган. Шу билан бирга 1875 йилда Хива тошбосмаҳонасида “Саводи таълим” рисоласи билан бирга босилган.



Ҳозирги вақтда қабри Хива якинидаги Шайх Мавлон бобо қабристонида бўлиб, мақбараси авлодлар томонидан эъзозланиб, 1989, 1999, 2019 йилларда таъмирланган.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Бобожон Тарроҳ Азизов – Ходим. Хоразм навозандалари. —Т.: “Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1994.
2. Олимжонов А. Маҳамбет найзаси. — Т.: “Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 1975.
3. Мунис. Танланган асарлар. — Т., 1957.
4. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. — Т.: “Фан”, 1959. 168, 234, 152, 324 бетлар.



ISHQORIY YER METALLARI MAVZUSINI O‘QITISHDA “KEYS-STADY” TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH

Kamolova Nargiza Ibragimovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Kimyo va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsent v.b., PhD

Ademova Nargiza Yangiboyevna

Toshkent davlat pedagogika universiteti tabiiy fanlar fakulteti

aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi 1 – kurs magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Ishqoriy yer metallari” mavzusini keys-stadi texnologiyasidan foydalanib o‘qitish, keys-stadi texnologiyasining mohiyati, anorganik kimyo fanida ishqoriy yer metallarini o‘qitishga keys-stadi texnologiyasini qo‘llashning ahamiyati va shu bilan birgalikda ularning olinishi va ishlatilish sohalari keng miqyosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: keys-stady, multimedia keys, video keys, metod, ishqoriy yer metallari, muammoli ta’lim, stadi, zamonaviy ta’lim texnologiyasi.

Pedagogik texnologiyalarda o‘qituvchi o‘quvchining mavjud imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanib, uning aqliy imkoniyatlarini ishga solib, rivojlanishini ta’minlaydi.

“Keys-stadi” inglizcha “case” – aniq vaziyat, hodisa, “study” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq, ta’lim so‘zlarining birikuvidan hosil qilingan bo‘lib, aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil etish va ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga erishishga asoslangan ta’lim metodidir. Mazkur metod muammoli ta’lim metodidan farqli ravishda real vaziyatlarni o‘rganish asosida aniq qarorlar qabul qilishga asoslanadi. Agar u o‘quv jarayonida ma’lum bir maqsadga erishish yo‘li sifatida qo‘llanilsa, metod xarakteriga ega bo‘ladi, biror bir jarayonni tadqiq etishda bosqichma-bosqich, ma’lum bir algoritim asosida amalga oshirilsa, texnologik jihatni o‘zida aks ettiradi.

Quyida dars jarayonida qo‘llaniladigan ayrim keyslarga to‘xtalib o‘tamiz:

Keysning bayoni: Turmushda ohaktosh ko‘p ishlatiladi. Uning tarkibida ishqoriy metall mavjud ekan. Bu metall kimyoviy elementlar davriy jadvalida 20-raqamli element bo‘lib, sof holda kumush rangli faol metall bo‘ladi. Uning faolligi ishqoriy metallar darajasida bo‘lmasa-da, lekin, har holda yetarlicha faol element hisoblanadi. Suv bilan ta’sirlashganda suv tarkibidagi vodorod shiddat bilan ajralib chiqq boshlaydi. Bu metallni ilk bora 1808-yilda ingliz kimyogari Gemfri Devi tomonidan elektrolitik usul bilan ajratib olingan bo‘lib, Devi ayni shu usul bilan kaliy va natriyni ham ajratib olgan edi [2].

Ushbu moddani ko‘plab tirik organizmlar o‘zini himoyalash vositasi sifatida ishlab chiqaradi va qo‘llaydi. Masalan, tuxum po‘chog‘i, ustritsa va mollyuskalarning chig‘anoqlari undan tashkil topgan bo‘ladi. Ustritsa ichiga yot jism tushib qolsa, masalan, qum zarrasi kirib qolsa, ustritsa unda himoyalaniish uchun bu modda ishlab chiqaradi va zarrani o‘rab oladi.

Keys topshirig‘i.

- 1. Ushbu modda qanday, uning tarkibidagi metal qaysi?
- 2. Ushbu modda tirik organizmlar uchun muhim hisoblanadi?

Keys yechimi.

1. Ohaktoshning kimyoviy nomi - kalsiy karbonati deyiladi. Ushbu nomdan ham ko‘rinib turibdiki, ohak tarkibida kalsiy elementi mavjud ekan. Kalsiy - kimyoviy elementlar davriy jadvalida 20-raqamli element bo‘lib, sof holda kumush rangli faol metall bo‘ladi. Uning faolligi ishqoriy metallar darajasida bo‘lmasa-da, lekin, har xolda kalsiy ham yetarlicha faol element hisoblanadi. Kalsiy suv bilan ta’sirlashganda suv tarkibidagi vodorod shiddat bilan ajralib chiqq boshlaydi. Lekin, bunda vodorod ajralib chiqishi, suvga natriy yoki kaliy ta’sir qilganchalik bo‘lmaydi. Kalsiy havoda juda tez xiralashib qoladi. Chunki u havodagi azot va kislorod bilan tez birikadi. Kalsiyni ilk bora 1808-yilda ingliz kimyogari Gemfri Devi tomonidan elektrolitik usul bilan ajratib olingan bo‘lib, Devi ayni shu usul bilan kaliy va natriyni ham ajratib olgan edi.


KEYS №2

Keysning bayoni: Tabiatda metallarning minerallari ko‘p tarqalgan. II guruh metallarining ham minerallari muhim ahamiyatga ega. Yer qobig‘ida silikatlar turkumiga mansub bo‘lmagan minerallar mavjud. Bundaylardan biri - ohaktoshdir.

Keys topshirig‘i.



Rasmda aks ettirilgan metallarning minerallarini izohlang.



kalsiy



stronsiy



bariy

1

2

3

- 1. _____
- 2. _____
- _____

Keys yechimi.

1. **Kalsiyning** muhim minerallaridan biri bu ohaktoshdir. Ohaktosh mineral qanday ko‘rinishda ekanligiga qarab, turli nomlar bilan ataladi. Agar ohaktoshni shaffof bo‘lmagan kristallar ko‘rinishida uchratilsa uni kaltsit deyiladi. Agar kristallar shaffof bo‘lsa, uni island shpati deyiladi. Ohaktosh turkumidagi minerallarning eng mashhuri va chiroylisi bu - marmar bo‘lib, unga sayqal berish orqali juda ajoyib me‘moriy bezaklar tayyorlash mumkin. Marmarning arxitektura bezagi sifatida qo‘llanilishi qadimgi yunon va Rim davridayoq keng ommalashgan edi. Vanihoyat, ohakning nisbatan mo‘rt va oson uqalanadigan shakli - bo‘r bo‘lib, uni biz maktab doskasi oldidagi doimiy manzili orqali yaxshi tanymiz. Angliyaning Duvr hududida bus-butun bo‘rdan iborat butun boshli qoyalar tizimi mavjud.

2. **Stronsiyni** 1790 yilda ingliz mineralogi Krouford Shotlandiyaning Stronsian (Strontian) shahri yaqinida topilgan stronsianit minerali tarkibida kashf qilgan. Metall holdagi stronsiyni 1908 yilda ingliz kimyogari Devi elektroliz yo‘li bilan gidroksiddan ajratib olgan. Uning 30 ga yaqin minerali ma‘lum. Ulardan selestin SrSO_4 va stronsianit SrCO_3 sanoat ahamiyatiga ega.

3. Tarkibida **bariy** tutuvchi asosiy minerallar bu – barit (BaSO_4) va viterit (BaCO_3) bo‘ladi. Shuningdek, bariyning «bariyli dala shpati» deb nomlanuvchi (bariy alyumosilikati), hamda, gialofan, nitrobarit nomli nodir minerallari mavjud.

Mineral tarkibiga ko‘ra, bariy rudalari ikki xil bo‘ladi: monominerali va kompleks rudalar. Kompleks rudalarda bariy, bariy sulfidli, bariy kalsiyli, temir-bariyli, hamda, bariy-flyuoritli minerallar mavjud bo‘ladi. Ularning tarkibida bariyga yondosh ravishda, mis va temir kolchedani, qo‘rg‘oshin, nikel, oltin va kumush sulfidlari, simob va kvarts mavjud bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan ham, sanoat miqyosida olish uchun odatda kompleksli bariy rudalariga e‘tibor qaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Amaliy tavsiyalar. – T.: —Iste’dodli jamg’armasi, 2008.
2. Olimov Q.T. Pedagogik texnologiyalar. – T.: —Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2011.
3. Rahmatullayev N.G., Omonov X.T., Mirkomilov Sh.M. “ Kimyo o‘qitish metodikasi” Toshkent “O‘qituvchi” 2009.
4. N.A.Parpiev, A.G.Muftaxov, X.R.Raximov. Anorganik kimyo. Toshkent «O‘zbekiston» 2003.



USMON YUSUPOV MILLIY QAHRAMON – ABADIYATGA DAXLDOR SHAXS HAQIDA...

Zohidova Nazira Olimjonovna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on
tumani Xalq ta'limi bo'limiga qarashli
61- maktabning I toifali tarix fani o'qituvchisi
Telefon: +998930587086

Anotatsiya: Ushbu maqola yaqin tarixda o'zbek xalqi ichidan yetishib chiqqan vatanparvar qahramon Usmon Yusupovning ikkinchi jahon urushida olib borgan faoliyatdagi haqiqatlar haqida to'xtalib, ijtimoiy fan o'qituvchilari foydalanishlari uchun kerakli manbalar asosida yozilgan.

Kalit so'zlar: “Katta terror”, “До конца истребит контрреволюция”, “Antisovet unsurlari to'g'risida”, Bektemirov, V.N.Malenin, Tret'yakova, I.B.Stalin, A.A. Anndrev, G.M.Malenkov

Usmon Yusupov (1900-1966) – butun qalbi va vujudi bilan Kommunistik partiya, sovetlar ishiga, sostalizm va kommunizm g'oyalariga astaydil ishongan va amalda aldangan, kamtarin va oliyjanob o'zbekona qadriyat va fazilatlariga ega bo'lgan Ozbekistonning sovet davridagi siyosat va davlat arboblardan biri bo'lgan. Bu millatparvar va yurtparvar inson 1937-1950-yillarda O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi, 1953-1955 yillarda esa O'zbekiston Ministrlar Sovetining raisi lavozimlarida xalq manfaati, yurt ravnaqi yo'lida samarali va ibratli faoliyat ko'rsatgan siymolardan biri edi.

U juda tashkilotchilik qobiliyat sohibi, xalqni anglash, uning bor-yug'idan boxabar bo'lgan, ommani mushkullarini oson qilishdek ko'plab savob ishlarni amalga oshirganligini ko'plab manbalar va keksa avlodlar orqali o'rganib kelmoqdamiz. Xalqimizning ishonch va xurmatini qozongan omma yetakchisi edi. U yashagan davrni o'rganar ekanmiz ayniqsa, 1937-1940-yillardagi O'zbekistondagi hayotni, Ikkinchi jahon urushi davridagi yuz bergan buyuk bunyodkorlik, nihoyatda qiyinchilik davrlarni uning judayam og'ir va samarali mehnatlarisiz tasavvur qilish mumkin emas. Usmon Yusupov tarix sinovidan shon – sharaf bilan o'tgan, o'z xalqining hurmat va ehtiromini qozongan ota kamtar va mehnatkash, g'amxo'r, millatoarvar, vatanparvar arbob edi. Ammo Usmon Yusupov hayotligida ham bu dunyoni tark etganda ham unga nisbatan bir qancha tuhmat, bo'htonlar uyushtirilgan. Unga qarshi birinchi hamla 1937-1938-yillarda “Katta terror” degan nom bilan tarixda qolgan qatag'onlik davrida boshlangan edi. VKP(b) Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi 1937 yil 11 iyuldagi yig'ilishda “Antisovet unsurlari to'g'risida” gi masala bo'yicha O'zbekiston SSRda Akmal Ikromov, Boltaboyev va Zagvozdin tarkibida uchlikni tasdiqlagan, biroq S.Boltaboyev o'rniga Jo'rabek To'rabekovni tayinlagan. Unda 1489 kishi otuvga, 3952 kishi surgun qilish belgilab berilgan.

Akmal Ikromov 1937 yilda lavozimidan olib tashlanib, uning o'rniga O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti birinchi kotibi etib Usmon Yusupov tayinlangan. Bu o'rinda Markaz va respublikadagi kuch ishlatish organlari tomonidan unga qarshi botiniy yo'llar, turli xil shantaj, qo'rqitishlar, obro'sizlantirish, rahbarlik lavozimlaridan mahrum qilib, turli tuhmatlar bilan otuv va surgunlar kabi mudhish hujumlar bo'lgani yaqin tariximizdan ma'lum.

1937 yili O'zbekistonning birinchi rahbari lavozimida faoliyat ko'rsatishining dastlabidayoq Usmon Yusupovning botiniy yo'l bilan shantaj, qo'rqitish usullarini qo'llash bilan Markaz va respublikadagi kuch ishlatish organlari mashg'ul bo'lishgan. Ular tomonidan “До конца истребит контрреволюция” maqolasi yozilgan va Usmon Yusupovning nomidan markaziy matbuotida e'lon qilingan, tezkorlik bilan bu maqola kitob sifatida 35000 nusxada nashr qilingan. Axir Usmon Yusupov O'zKompartiya Markaziy Komitetining birinchi seretari lavozimiga 1937 yil 27 sentyabrda tayinlangan. 20 oktyabrda esa bu maqola Bektemirov muharrirligida, V.N.Malenin texnik muharrirligida, ma'sul korrektor Tret'yakova imzosi bilan kitob sifatida e'lon qilish uchu nashriyotga topshirilgan. Maqola va kitob rus tilida tayyorlangan, keyin o'zbek tiliga tarjima qilingan. Usmon Yusupov 1936 yildan 1937 yil 27 sentyabrgacha O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqat sanoati xalq komissarilavozimida faoliyat ko'rsatgan. O'z-o'zidan ravshanki, bu lavozimda Usmon Yusupov aksariyat xo'jalik sohaisda faoliyat ko'rsatgan. Endigina 23 kunlik muddatda birinchi kotib lavozimida faoliyat ko'rsatgan Usmon Yusupo qanday qilib rus tilida “До конца истребит контрреволюция” maqolani “Правда востока”da, o'zbek tilidagi tarjimasini “Qizil



O'zbekiston"da e'lon qilinishiga va shu maqolani 1937-yil 20-oktyabrda "Qizil O'zbekiston" nashriyotida kitob qilib 35000 nusxada bosish uchun 2673-sonli buyurtma bilan nashriyotga topshirish mumkin edi? Bizningcha O'zbekistonning yangi rahbarini "Katta terror" girdobiga tortish, uni obro'sizlantirish, qo'rqitish uchun Markazdagi Ejov va Respublikadagi unga bo'ysunuvchi kuch ishlatish organlari rahbarlarining botiniy harakatlarining yorqin ko'rinishi edi. Ular shoshilinch ravishda Usmon Yusupov nomidan maqola va kitob tayyorlab nashr etishga ulgurishgan. Oldindan tayyorlangan "До конца истребит контрреволюция" maqolaning rus tilidagi asl nusxasi qatag'on qurboni Akbar Islomovning turmush o'rtog'I Keteva Davidovna Kldiashvilining arxivida saqlanib qolgan.

Qariyb o'ttiz yil mobaynida O'zbekistonda amalga oshirilgan 1937-1938 yillardagi qatag'on tarixi mavzusi bilan shug'illanib Moskva, Toshkent, Ukraina, Stavropol o'lkasi, Qozog'iston, qirg'iziston respublikalaridagi arxivlarda tadqiqotlar olib borib, to'plangan xujjatlar va materiallar asosida o'nlab kitoblar, yuzlab ilmiy maqolalar, risolalar muallifi professor, tarix fanlar doktori Rustambek Shamsutdinov tadqiqotchi sifatida Usmon Yusupovning 1937-1938 yillarda "Katta terror" kompaniyasida tutgan o'rni va roliga yangicha yondashuv, yangicha munosabatda bo'lish kerak deb hisoblaydi.

1956 yili KPSS Markaziy Komiteti Siyosiy byurosi huzurida 1937-1938- yillardagi "Katta terror"da qatag'on qilinganlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha komissiya tuzilgan. Uning a'zolari qilib O'zbekistondan ikki kishi tayinlangan, biri N.A.Muhitdinov, ikkinchisi akademik, yurist Xadicha Sulaymonova tasdiqlangan.Bu har ikki yurtdoshimiz O'zbekiston bo'yicha "Katta terror"da qatag'on qilinganlarni reabilitatsiya qilishda ulkan xizmatlar qilishdi.Ularni o'rganganlarini kelesak avlodga yetkazish esa bizning fazifamizdir.

Usmon Yusupov bilan bir davrda yashgan Nuriddin Akramovich Muhitdinov O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining lavozimida ishlaganlardan ikki shaxs taqdiriga e'tibor qaratib ulardan biri Yusupov haqida shunday yozgan: "Usmon Yusupov 13 yil Markaziy Komitetga sekretarlik qilib, respublikani katta g'alabalarga olib keldi. Ayniqsa, urush vaqtida eng og'ir kunlarda respublika mehnatkashlarining qiyin va tig'iz vazifalarni bajarishga safarbar eta oldi. U xalq bilan gaplashishni bilardi. Respublikaning o'ziga xos xususiyatlarini xech narsadan qochirmas, shu bilan birga KPSS Markaziy Komitetining yo'lini to'g'ri amalga oshirishga sidqidildan harakat qilar edi. Eng muhimi xalqqa suyanardi, o'z vaqtida safarbar etilgan xalq nimalarga qodirligini o'z tajribasidan yaxshi bilardi va undan muruvvatini hech ayamasdi. U partiyaviy ishni to'g'ri yo'lga qo'yib, mehnatkashlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga erishgani, ularni katta bunyodkorlik ishlarga otlantira olgani aniq. Ana shu chin yurakdan qilgan mehnatlari evaziga ham u butun xalq yuragida qoldi. Izzati abadiy".

1938 yilning bahorida oblastlar, shaharlar va rayonlar partiya komitetlari sekretarlarining oltmish foizi qamoqqa olingan. Xuddi shu yilning ikkinchi yarmida yana partiya hodimlaridan 114 kishi qatag'on qilingan.

Bunday qaltis holatlar Usmon Yusupov davrida ko'plab sodir bo'lgan albatta. Bunday yo'lni tutmasdan o'sha davrda lavozimida ishlay olmas edi. Mabodo boshqacha yo'l tutganda ham qo'lidan hech narsa kelmasligi aqli raso har bir kimsaga oynadek ayondir.Lekin shunday bo'lsada, Usmon Yusupov 1938 yilda shaxsan I.B.Stalin, A.A. Anndrev va G.M.Malenkovlarga maxsus xat bilan murojaat qilib, NKVD (Ichki Ishlar Xalq Komissari) xodimlari haddan oshayotganliklari va shu boisdan ularni jilovlab qo'yish masalasini ko'ndalang qoyishga jur'at etgandi.

Bir so'z bilan aytganda, Usmon Yusupov o'z davrining haqiqiy qahramoni o'zbek xalqining milliy qahramonidir.Uning nomini abadiyatga muhrlab kelajak avlodga yetkazish bizning muhim fazifalarimizdandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Said Ahmad "Ufq" .Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976
2. Internet manbalari



TARIX DARSLARIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA MUHAMMAD SHAYBONIYXON MUNOSABATLARI MAVZUSINI O'RGANISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Xidirova Shahlo Kamilevna
Navoiy viloyati Nurota tumani
27-umumta'lim maktabi tarix,
tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: tarix darslari orqali o'quvchilar ongida vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirishda buyuk sarkardalar Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxon siymolarining o'rni, mavzuni o'quvchilarga o'rgatish usullari ushbu uslubiy tavsiyada aks etgan.

Kalit so'zlar: Temuriylar sulolasi tanazzuli, o'zaro urushlar, ichki kurashlar, “Boburnoma” asaridagi haqiqatlar, Boburning yozishmalari....

Tarixni haqqoniy anglash oson ish emas. Moziydan darak beradigan manbalarning qay biri sahiih, qay biri yolg'onligini ajratish ham quduq tubidan ignani topishdek gap. Shu bois ham tarixnavislar o'z ko'zi bilan ko'rmagan voqealar tasviridan so'ng, “Bilim Allohga xosdir” deyishadi. Shunday bo'lsa-da, tarix labirinti aro haqiqatni tanlay bilish zukko kitobxonning ixtiyorida qoladi. Munosabatlari haqida turli xildagi ma'lumotlar bizgacha yetib kelgan ikki buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur va Muhammad Shayboniyxondir. Ba'zi manbalarda ikki sarkarda o'rtasidagi kamsonli ziddiyatlarni mubolag'alanib, birida qahramonlik va dilbarlikni bo'rttirib, birida johil bosqinchi, zolim sulton obrazi yaratildi. Aslida, ularni mamlakatdagi siyosiy hayot bir-biriga raqib qildi. Movarounnahrda shayboniylarning hukumatga kelishi temuriy shahzodalarning o'zaro urushlarga kirishib ketishi, hukumatda parokandalik avj olishi bilan bog'liq edi. Bunday holatda yangi kuch, yangi bir sulola vujudga kelishi tabiiy jarayon. Shayboniy xon temuriylar hukmronligi ostida bo'lgan Turkiston, Turon zaminining farzandi, har jabhada ilmi, shijoatli, shu mamlakat taxtiga loyiq sarkarda edi. G.Vamberining “Buxoro yoki Movaraunnahr tarixi” asarida Shayboniyxon tomonidan Movarounnahrning egallanishi shunday ochiqqlangan: “Temuriy sulolasining yulduzi so'nayotgandi va 19 yoshli Bobur Mirzo uni to'xtatishga qodir emasdi. Chingizxon avlodi, Jo'chi ulusi [Oltin O'rta] vakili Shayboniy Muhammadxon temuriylarning o'zaro urushi alanga olayotgan va bosib olish uchun qulay fursat yuzaga kelayotgan lahzada ko'psonli o'zbek otliq askarlari sharofati bilan allaqachon Movaraunnahrning ko'plab muhim nuqtalarini amalda egallab olgandi. Bu omadli jangchi Temuriylar hukmronligiga nuqta qo'ydi”. Mirzo Boburning “Boburnoma” asari u va Shayboniyxon munosabatlarini to'laqonli ochib beradi. Asarda bobosi Amir Temurning taxtiga munosib voris ekanini ta'kidlagan va buning uchun qilgan sa'y-harakatlarini, boshqa temuriy shahzoda hamda Shayboniyxonning hukumatga kelishini Bobur taxt uchun ichki kurashlar sifatida baholaydi. Shu o'rinda shayboniylar bilan o'zaro hurmat va teng munosabat, hatto kerak o'rinda qarindoshlik aloqalari haqida ma'lumot beradi. Keyinchalik Bobur va uning avlodlari hindda hukmronlik qilar ekan, shayboniylar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini olib boradi. Movarounnahrda brogan olimlar, sarkardalar va elchilarni qadrlaydi, ularga ishonch bildiradi. Hattoki, “Boburnoma”da SHayboniyxonning nabirasi Po'lod sulton bilan yozishmalarini zikr etgan. Bobur Mirzo Po'lod sultonning nazmga moyillini bilgach, unga “Devon”ini tuhfa qilgan. Maktubga quyidagi she'riy baytni ilova qilgan:

Ul sarvning haramig'a gar etsang, ey sabo,
Bergil bu hajr xastasidin yod ko'ngliga...





Ushbu mavzuni o`rganishda quyidagi usullardan foydalanish samaralidir.

“O`z xotirangni sinovdan o`tkaz” usuli. Bunda o`qituvchi “Shayboniixon– mohir sarkarda”, “Bobur- vatanparvar siymo”, “Bobur -adolatli hukmdor” kabi mavzular yozilgan tarqatmalarni guruhlariga tarqatadi. O`quvchilar esa eslab qolganlari asosida mavzuga oid ma`lumotlarni xatosiz sanashbahsi tashkil etishadi.

“Besh bosqichli konspekt” usuli. Bunda 1 dan 5 gacha bo`lgan raqamlarda raqamlar qiymaticha ma`lumotlar, ya`ni, 1ga bitta, 2ga ikkita, 3ga uchta, 4ga to`rtta, 5 ga beshta ma`lumot – jami 15ta ma`lumot saralanadi. Barcha raqamlardagi ma`lumotlar faqat bir axborotni tashkil etishi, va ketma-ket izchillikni tashkil etgan bo`lishi kerak. Buning uchun o`qituvchi mavzuni rejalashtirib berishi lozim. **“Zakovatli zukko” usuli.** Mazkur usul bilimlarni puxta o`zlashtirishda o`quvchlarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” usuli o`quvchlarda tezkor fikrlash ko`nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Bu usul o`z bilimlarini sinab ko`rish istagida bo`lgan o`quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. O`qituvchi tomonidan Shayboniixon va Bobur haqida berilgan savollarga o`quvchilar qisqa muddatlarda to`g`ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Tarix darslarida ushbu usulni o`quvchilar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo`llanilishi mumkin. **“Kuzatish, bahslashish, ishontirish” usuli.** Bu usul bahs-munozaraga asoslanib, buning uchun sinf o`quvchilari 4 guruhga ajratiladi. Har bir guruhga bittadan savol –topshiriq beriladi. Topshiriqni bajarish uchun vaqt belgilanadi. Shu vaqt ichida guruh a`zolari topshiriqni o`zaro bahslashgan holda bajaradilar va bir to`xtamga keladilar. Vaqt tugagach, har bir guruh sardori o`zlariga berilgan topshiriqning mohiyatini so`zlab beradilar, qolgan guruhlar kuzatib tinglaydilar. Agar so`zlovchi guruhning javoblari asossiz bo`lsa boshqa guruhlarining a`zolari uni asoslab, hammani ishontiradi. Bunda o`qituvchi bosh hakam vazifasini o`taydi hamda kamchiliklarni to`ldirib, javoblarni asoslab beradi. Bu usul asosan, mustahkamlash va takrorlash darslarida qo`llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov M. “Yangi pedagogic texnologiyalar” – Qarshi. Nasaf. 2000
2. Falsafa fanlari nomzodi Zamira Isoqova maqolalari
3. Darsliklar asosida metodik qo`llanmalar.

ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 3-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000